



YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA FISKAL INSTRUMENTLARNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI

PhD Ergasheva Malikaxon

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0001-4275-6546

phd_ergasheva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada yashirin iqtisodiyotni legallashtirishda fiskal siyosat vositalarining metodologik asoslari yoritiladi. Soliq stavkalarini maqbullashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va byudjet shaffofligini oshirish orqali norasmiy sektordan rasmiy iqtisodiyotga o'tish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston sharoitiga mos tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashirin iqtisodiyot, fiskal instrumentlar, soliq siyosati, raqamlashtirish, fiskal shaffoflik, legallashtirish.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ ПРИМЕНЕНИЯ ФИСКАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В СОКРАЩЕНИИ ТЕНЕВОЙ ЭКОНОМИКИ

PhD Эргашева Маликахон

Ташкентский международный университет Кимё

Аннотация. В статье раскрываются методологические основы использования инструментов фискальной политики для легализации теневой экономики. Анализируются возможности перехода от неформального сектора к официальной экономике за счёт оптимизации налоговых ставок, внедрения цифровых технологий и повышения прозрачности бюджета. На основе международного опыта разработаны рекомендации, адаптированные к условиям Узбекистана.

Ключевые слова: теневая экономика, фискальные инструменты, налоговая политика, цифровизация, бюджетная прозрачность, легализация.

METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE USE OF FISCAL INSTRUMENTS IN REDUCING THE SHADOW ECONOMY

PhD Ergasheva Malikakhon

Kimyo International University in Tashkent

Abstract. The article highlights the methodological foundations of applying fiscal policy tools to legalize the shadow economy. It examines opportunities for transitioning from the informal to the formal sector through tax optimization, digitalization, and enhanced budget transparency. Based on international experience, recommendations tailored to Uzbekistan's context are proposed.

Keywords: shadow economy, fiscal instruments, tax policy, digitalization, budget transparency, legalization.

Kirish.

Yashirin iqtisodiyot (norasmiy iqtisodiyoti) iqtisodiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida uchraydigan murakkab va ko'p qirrali hodisa hisoblanadi. Jahon amaliyotida u iqtisodiy faoliyatning davlat organlari tomonidan ro'yxatga olinmagan, soliqlardan yashirilgan yoki turli tartibga solish talablaridan chetda qolgan qismini anglatadi. Mazkur hodisa ko'plab mamlakatlarda uchrashi bilan birga, rivojlanayotgan va o'tish davridagi iqtisodiyotlarda yanada keng tarqalgan. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, rivojlangan davlatlarda yashirin iqtisodiyot YAIMning o'rtacha 10-5 foizini tashkil etsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 30-40 foiz, ba'zi hollarda 50 foizdan ham yuqori darajaga yetishi mumkin.

Yashirin iqtisodiyotning mavjudligi davlat moliyasiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, u soliqqa tortish bazasini qisqartiradi va byudjet tushumlarini kamaytiradi, natijada davlatning ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish imkoniyati torayadi. Ikkinchidan, norasmiy faoliyat raqobat muhitini buzadi, chunki soliqlarni to'lamaydigan tadbirkorlar rasmiy sektordagi subyektlar oldida asossiz ustunlikka ega bo'ladilar. Uchinchidan, yashirin iqtisodiyot davlat va fuqarolar o'rtasidagi ishonchni zaiflashtiradi, soliq intizomini pasaytiradi va fiskal barqarorlikka tahdid soladi.

An'anaviy yondashuvlar ko'proq ma'muriy nazoratni kuchaytirish, jazolash choralari kengaytirish va soliq organlari vakolatini oshirishga asoslangan bo'lib, qisqa muddatli natija berishi mumkin. Ammo uzoq muddatda bunday choralarning samaradorligi past bo'ladi. Chunki norasmiy faoliyatning ildizi nafaqat nazoratning sustligi, balki soliq tizimining murakkabligi, ortiqcha tartibga solish talablari, korrupsiya, shaffoflikning pastligi va eng muhimi fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchsizligiga borib taqaladi. Shu sababli zamonaviy iqtisodiy nazariya va xalqaro tajriba yashirin iqtisodiyotni legallashtirishda fiskal instrumentlarni samarali metodologik vosita sifatida ko'rmoqda.

Fiskal instrumentlar deganda soliq siyosati, davlat xarajatlari, byudjet intizomi, moliya bozori mexanizmlari va raqamli texnologiyalarning uyg'unlashgan tizimi tushuniladi. Ular yordamida davlat ikki asosiy vazifani bajaradi: bir tomondan, soliq yukini maqbullashtirish orqali norasmiy faoliyatni rasmiy sektorga kirishga rag'batlantiradi; ikkinchi tomondan, raqamlashtirish va shaffoflikni oshirish orqali yashirish imkoniyatlarini keskin kamaytiradi.

Xalqaro tajribalar ham buni tasdiqlaydi. Masalan, Estoniya raqamli soliq tizimini joriy qilish orqali nafaqat soliqqa rioya qilish darajasini oshirdi, balki soliqqa tortish xarajatlarini ham kamaytirdi. Chili va Braziliyada elektron hisob-faktura tizimi yashirin aylanmalarni keskin qisqartirdi. Sharqiy Yevropa davlatlarida esa soliqni soddalashtirilgan rejimda to'lash imkoniyatlari kichik biznesni rasmiy sektorga jalb etishda muhim omil bo'ldi.

O'zbekiston sharoitida ham yashirin iqtisodiyot hajmi ancha yuqori bo'lib, bu mamlakatning fiskal barqarorligi, iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy adolat tamoyillariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va uni rasmiylashtirish masalasi milliy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, 2020-yillarda soliq tizimini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish, onlayn nazorat-kassa mashinalarini joriy qilish, elektron hisob-fakturalar tizimini kengaytirish kabi fiskal choralar muhim qadam bo'ldi. Ammo, bu jarayonni yanada samarali tashkil etish uchun metodologik yondashuv zarur.

Adabiyotlar sharhi.

Yashirin iqtisodiyotga oid ilmiy tadqiqotlar asosan uning hajmini o'lchash, sabablari va oqibatlari hamda uni kamaytirish mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Klassik yondashuvlar orasida Tanzi (1999) yashirin iqtisodiyotni yuqori soliq yuklari va ortiqcha tartibga solish oqibati sifatida talqin qilgan bo'lsa, Schneider (2005) uni institutsional zaiflik, soliq ma'murchiligining sustligi va norasmiy mehnat bozori bilan bog'laydi. Feige (1990) esa yashirin iqtisodiyotni davlat va fuqarolar o'rtasidagi "institutsional kelishuv"ning buzilishi sifatida ko'rib, uni kamaytirishda fiskal siyosat vositalarining rolini alohida ta'kidlaydi.

So'nggi yillarda ilmiy izlanishlar yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda soliq morali tushunchasini markazga qo'yimoqda. Alm va Torgler (2006) empirik tadqiqotlarida soliqqa ixtiyoriy rioya ko'proq soliq tizimidagi adolat, shaffoflik va davlat xizmatlarining sifati bilan bog'liqligini ko'rsatib berishgan. Feld va Frey (2007) "psixologik soliq kontrakti" nazariyasini ishlab chiqib, soliqqa rioya qilish nafaqat jazodan qo'rqish, balki davlat bilan o'zaro ishonch va adolat hissi bilan ham belgilanadi, degan xulosaga kelishgan. Bu yondashuv yashirin iqtisodiyotni legallashtirishda fiskal instrumentlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va xulq-atvoriy jihatlariga ham ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Raqamlashtirish fiskal vositalarning samaradorligini oshirishda eng muhim yo'nalish sifatida alohida o'rganilgan. Pomeranz (2015) Chili misolida elektron hisob-fakturalar tizimi joriy etilganda, soliqdan bo'yin tovlash darajasi keskin kamayganini ilmiy asosda isbotlagan. Naritomi (2019) Braziliya tajribasini o'rgangan va elektron chek tizimi orqali iste'molchilar amalda "soliq auditori" vazifasini bajarib, yashirin operatsiyalarni qisqartirganini qayd etgan. OECD (2018) va Jahon banki (2021) hisobotlari ham fiskal raqamlashtirish (onlayn kassa mashinalari, e-invoice, elektron ro'yxatga olish) yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda global tendensiyaga aylanganini ko'rsatadi.

Institutsional sifati past bo'lgan mamlakatlarda fiskal instrumentlarning samarasi cheklangan bo'lishi mumkinligi ham ta'kidlanadi. Kaufmann, Kraay va Zoido-Lobaton (1999) tomonidan ishlab chiqilgan boshqaruv indikatorlari soliq siyosati samaradorligi davlat boshqaruvi, korrupsiya darajasi va qonun ustuvorligiga bevosita bog'liq ekanini ko'rsatgan. La Porta va Shleifer (2014) esa rivojlanayotgan mamlakatlarda norasmiy iqtisodiyot nafaqat soliq tizimidagi kamchiliklar, balki davlatning sifatli jamoat xizmatlari ko'rsata olmasligi natijasida yuzaga kelishini ilmiy asosda isbotlashgan. Demak, yashirin iqtisodiyotni legallashtirish metodologiyasi fiskal instrumentlar bilan bir qatorda, institutsional islohotlarni ham o'z ichiga olishi kerak.

Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarida olib borilgan tadqiqotlar, xususan, Pashev (2005) va IMF (2022) ishlari, soliqlarni soddalashtirish, kichik biznes uchun maxsus rejimlarni joriy qilish va byudjet shaffofligini kuchaytirish yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda muhim natijalar berishini ko'rsatadi. Estoniya tajribasi raqamli fiskal tizimlarni keng qo'llash orqali soliqqa rioya qilish xarajatlarini kamaytirish va soliq bazasini kengaytirishda muvaffaqiyatli model sifatida e'tirof etilgan (2014).

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yashirin iqtisodiyot ko'plab mamlakatlarda, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy barqarorlik va fiskal boshqaruvga jiddiy tahdid solmoqda. U soliqqa tortish bazasini qisqartiradi, byudjet tushumlarini kamaytiradi va davlat hamda fuqarolar o'rtasida ishonchni zaiflashtiradi. An'anaviy nazorat va jazolash mexanizmlari qisqa muddatli samaraga ega bo'lsa-da, uzoq muddatda muammoni hal qilmaydi. Shu sababli so'nggi yillarda yashirin iqtisodiyotni legallashtirishda fiskal siyosat vositalari soliq stavkalarini maqbullashtirish, soddalashtirilgan tartiblarni joriy etish, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va byudjet jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash eng muhim metodologik yo'nalish sifatida qaralmoqda. Xalqaro tajribalar ham ushbu yondashuvning samarali ekanini ko'rsatmoqda.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asosiy yondashuv soliq yukini kamaytirish va soddalashtirilgan tartiblarni joriy qilishdan iborat. Bunday yondashuv qisqa muddatda rasmiylashtirish jarayonini tezlashtirsa-da, mustahkam institutsional asos bo'lmaganda uning samarasi uzoq muddatga cho'zilmaydi. Xitoy tajribasi fiskal instrumentlarni qat'iy tartibda qo'llash va elektron tizimlar orqali nazoratni kuchaytirish barqaror fiskal tushumlarni ta'minlashini ko'rsatadi. Rossiyada fiskal raqamlashtirish muhim natija bergan bo'lsa-da, korrupsiya va institutsional zaiflik natijalarni cheklamoqda. Hindistonda GST tizimining joriy etilishi milliy fiskal kontrakti kuchaytirgan bo'lsa-da, kichik tadbirkorlar uchun dastlabki bosqichda katta xarajatlarni yuzaga keltirdi.

1-jadval

Yashirin iqtisodiyotni legallashtirishda rivojlanayotgan mamlakatlar davlatlar tajribasi

Davlat	Asosiy fiskal instrument	Natijalar va muammolar
Xitoy	Soliq imtiyozlari, elektron hisob-fakturalarni majburiy joriy etish	Soliq bazasi kengaydi, fiskal tushumlar barqarorlashdi, ammo ayrim hududlarda hududiy tafovut saqlanib qolmoqda
Rossiya	Onlayn kassa mashinalari, soliq amnistiyalari	Soliqdan bo'yin tovlash qisqardi, norasmiy savdo hujjatlashtirildi, biroq korruptsiya xavfi samaradorlikni pasaytirmoqda
Hindiston	GST (General Sales Tax) tizimini joriy etish va raqamli to'lovlarni rag'batlantirish	Formalizatsiya oshdi, onlayn tranzaksiyalar ulushi keskin ko'paydi, ammo kichik biznes uchun moslashuv davri og'ir bo'ldi

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi.

2-jadval

Qozog'iston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli fiskal texnologiyalar amaliyoti

Davlat	Raqamli fiskal texnologiyalar	Natijalar va istiqbollar
Qozog'iston	Elektron hisob-faktura, QR-kod asosida fiskal chek, soliq organlari uchun yagona axborot bazasi	Soliq bazasi kengaydi, fiskal shaffoflik oshdi, biroq kichik hududlarda texnik imkoniyatlar yetarli emas
Rivojlanayotgan mamlakatlar (umumiy)	Onlayn ro'yxatdan o'tish, elektron monitoring tizimlari	Yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda ijobiy natijalar, ammo siyosiy va institutsional barqarorlik talab etiladi
Xitoy	Blockchain asosida nazorat tizimlari, sun'iy intellekt orqali soliq monitoringi	Yashirin operatsiyalar deyarli minimal darajaga tushirilmoqda, nazorat samaradorligi yuqori
Hindiston	"Digital India" dasturi doirasida elektron to'lov tizimlari va soliq ma'lumotlari bazasi	Rasmiy iqtisodiyot hajmi oshdi, fiskal boshqaruvning shaffofligi ta'minlandi, ammo raqamli savodxonlik muammosi mavjud

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi.

Qozog'iston tajribasi Markaziy Osiyoda yashirin iqtisodiyotni legallashtirish bo'yicha samarali model sifatida ko'rilmoqda. Raqamli texnologiyalar soliq organlari faoliyatini sezilarli darajada yengillashtirdi va shaffoflikni oshirdi, ammo infratuzilma va internet imkoniyatlari yetarli bo'lmagan hududlarda qamrov past. Rivojlanayotgan mamlakatlarda onlayn ro'yxat va elektron monitoring sezilarli natija bergan bo'lsa-da, siyosiy iroda va institutsional mustahkamlik muhim omil bo'lib qolmoqda. Xitoyning blockchain va sun'iy intellekt asosidagi nazorat tizimlari global miqyosda eng ilg'or amaliyot sifatida tan olingan. Hindiston esa "Digital India" dasturi orqali norasmiy sektorda elektron tranzaksiyalarni kengaytirib, fiskal shaffoflikka erishgan. Biroq texnologiyadan foydalanish imkoniyati cheklangan qatlamlar uchun bu jarayon moslashuv davrini murakkablashtiradi.

Xulosa va takliflar.

Yashirin iqtisodiyotni fiskal siyosat vositalari orqali legallashtirish bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, samarali natijalarga erishish uchun kompleks va tizimli yondashuv zarur. Avvalo, soliq siyosatini maqbullashtirish eng muhim vazifalardan biri bo'lib, bunda soliq stavkalarini iqtisodiy sharoitga moslashtirish, imtiyozlarni faqat ustuvor tarmoqlar va innovatsion faoliyatga yo'naltirish hamda soliqqa tortish bazasini kengaytirish lozim. Bu orqali

nafaqat soliq tushumlari barqarorlashadi, balki norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar rasmiylashtirishga qiziqish bildiradilar. Shu bilan birga, raqamli fiskal texnologiyalarni keng joriy qilish, xususan elektron hisob-faktura, onlayn nazorat-kassa mashinalari, yagona elektron ro'yxatga olish va real vaqt monitoring tizimlarini qo'llash moliyaviy operatsiyalarni to'liq hujjatlashtirish, naqd pul aylanmasini kamaytirish va fiskal intizomni oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi yo'nalish sifatida byudjet jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash va davlat xarajatlari ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zarur. Bu nafaqat soliq to'lovchilarda davlatga nisbatan ishonchni oshiradi, balki davlat va fuqarolar o'rtasida "fiskal kontrakt"ni shakllantiradi. Mazkur jarayonni xalqaro standartlarga mos ochiq hisobot tizimlari bilan qo'llab-quvvatlash, korrupsiya xavfini kamaytirish va davlat xarajatlari samaradorligini oshirish barqaror fiskal boshqaruvning kafolatidir. Bundan tashqari, xalqaro ilg'or tajribalarni milliy sharoitga uyg'unlashtirish, xususan Estoniya, Hindiston va Xitoy tajribalaridan o'rganish va moslashtirish, O'zbekistonning o'ziga xos iqtisodiy va institutsional xususiyatlariga mos innovatsion fiskal mexanizmlarni joriy etishni taqozo etadi.

Umuman olganda, yashirin iqtisodiyotni legallashtirish mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishi va fiskal barqarorligi uchun strategik ahamiyatga ega. Taklif etilgan instrumentlarning uyg'un qo'llanilishi soliqqa tortish bazasini kengaytiradi, byudjet tushumlarini barqarorlashtiradi, iqtisodiyotning shaffofligini oshiradi va uzoq muddatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

- Alm, J. & Torgler, B. (2006). Culture differences and tax morale in the United States and Europe. *Journal of Economic Psychology*, 27(2), 224–246.
- Feige, E.L. (1990). Defining and estimating underground and informal economies: The new institutional economics approach. *World Development*, 18(7), 989–1002.
- Feld, L.P. & Frey, B.S. (2007). Tax compliance as the result of a psychological tax contract: The role of incentives and responsive regulation. *Law & Policy*, 29(1), 102–120.
- International Monetary Fund (IMF) (2022). *Republic of Uzbekistan: Selected Issues*. Washington, DC: IMF.
- Kaufmann, D., Kraay, A. & Zoido-Lobaton, P. (1999). *Governance matters*. World Bank Policy Research Working Paper, 2196.
- La Porta, R. & Shleifer, A. (2014). Informality and development. *Journal of Economic Perspectives*, 28(3), 109–126.
- Martinez-Vazquez, J. & Vulovic, V. (2014). Tax structure and growth: Estimating a dynamic panel model for OECD countries. *International Center for Public Policy Working Paper*, 14-02.
- Naritomi, J. (2019). Consumers as tax auditors. *American Economic Review*, 109(9), 3031–3072.
- OECD (2018). *Tax challenges arising from digitalisation: Interim report 2018*. Paris: OECD Publishing.
- Pashev, K. (2005). Tax compliance of small businesses in transition economies: Lessons from Bulgaria. *Economic Systems*, 29(2), 207–218.
- Pomeranz, D. (2015). No taxation without information: Deterrence and self-enforcement in the value added tax. *American Economic Review*, 105(8), 2539–2569.
- Schneider, F. (2005). Shadow economies around the world: What do we really know? *European Journal of Political Economy*, 21(3), 598–642.
- Tanzi, V. (1999). Uses and abuses of estimates of the underground economy. *Economic Journal*, 109(456), F338–F347.
- World Bank (2021). *Uzbekistan: Strengthening public sector performance*. Washington, DC: World Bank.